



KDB Bank Uzbekistan

# BIZNES REJA



MOLIYAVIY YIL

# 2024

# MUNDARIJA

## 01

### Biznes Muhit va Istiqbollar

---

O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollari	3
O'zbekistonda bank tizimi	4

## 02

### Biznes Reja va Boshqaruv Strategiyasi

---

Bank maqsadi va asosiy vazifalar 2024	5
Moliyaviy rivojlanish rejasi	6
Yillik budjet rejasi va tafsilotlar	10

## 03

### Moliyaviy Reja

---

Umumiy balans hisoboti	12
Umumiy foyda va zarar hisoboti	13

# Biznes Muhit va Istiqbollar

## O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollari

### Asosiy ko'rsatkichlar - 2023

- 2023 yilda O'zbekiston iqtisodiyotning barcha sohalarida barqaror o'sishni namoyish etishda davom etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yili O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 6.0% ga oshgan.
- O'tgan yil davomida narxlarning o'sishining sezilarli sekinlashishi kuzatilgan. Shuningdek, O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2022 yilda 12.3% bo'lishiga qaramasdan 2023 yilda 8.8% ni tashkil etgan.
- 2023 yilda investitsiya faoliyati sezilarli darajada ko'tarilib, 2022 yildagi 0.2% ga qaraganda 22.1% ga oshgan. Ushbu o'sish ko'rsatkichlari markazlashmagan investitsiyalarning 26% ga o'sishi sababli erishilgan. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar qiymati 58.9% ga (bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar deyarli 2 baravarga), tijorat banklarining kreditlari orqali moliyalashtirilgan va qarz hisobiga amalga oshirilgan investitsiyalar 17.9% ga, aholi mablag'lari hisobiga kiritilgan investitsiyalar esa 8.9% ga o'sdi.
- O'tgan yili mamlakatning tashqi savdo faoliyati yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etishda davom etdi. 2023-yilda tashqi savdo aylanmasi \$62.5 mlrd ni tashkil etdi (2022 yilga nisbatan 23.9% ga o'sdi). Eksport hajmi 23.8% ga oshib, \$24.4 mlrd ni, import hajmi esa 24% ga oshib, \$38.1 mlrd ni tashkil etdi.

### Asosiy yo'nalishlar - 2024

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Xalqaro Moliya Institutlarining so'nggi hisobotlarida e'lon qilingan prognozga ko'ra, O'zbekiston YaIM 2024 yilda 5.5-6% (MB)<sup>1</sup>, 5.6% (WB)<sup>2</sup>, 5.5% (ADB)<sup>3</sup>, 6.5% (EBRD)<sup>4</sup> o'sishi kutilmoqda. Ushbu kutilmalar qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligini oshishi, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan islohotlarni davom etishi bilan chambarchas bog'liqdir.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining prognozlariga ko'ra, 2024 yilda inflyatsiya darajasi 8-9% bo'lishi kutilmoqda. Biroq, Xalqaro Moliya Institutlari (ADB<sup>3</sup>, IMF<sup>5</sup>) ning kutilmalari Markaziy Banknikiga qaraganda 1%ga yuqoriroq bo'lib 10% bo'lishi kutilmoqda.
- "Fuqarolar uchun budget 2024" to'g'risidagi hisobotga<sup>6</sup> muvofiq, tashqi savdo uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar sababli 2024 yilda respublikada tashqi savdo aylanmasi \$67.2 mlrd ni tashkil etishi kutilmoqda. Xususan, eksport va import hajmi mos ravishda \$25.4 mlrd va \$41.8 mlrd ni, savdo balansi taqchilligi esa \$16.4 mlrd ni tashkil etishi prognozlashtirilgan.

## Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Birlik	2021	2022	2023	2024 (P)
YaIM real o'sishi	%	7.4	5.7	6.0	5.5-6
WB		-	-	-	5.6
ADB		-	-	-	5.5
EBRD		-	-	-	6.5
Nominal YaIM	\$ mlrd	69.2	80.4	90.9	99.8 <sup>7</sup>
Inflatsiya darajasi	%	10.0	12.3	8.8	8-9
Tashqi savdo aylanmasi	\$ mlrd	42.1	50	62.5	67.2
Tovarlar eksporti	\$ mlrd	16.6	19.3	24.4	25.4
Tovarlar importi	\$ mlrd	25.5	30.7	38.1	41.8
Savdo balansi	\$ mlrd	-8.9	-11.4	-13.7	-16.4
Valyuta zaxirasi	\$ mlrd	35.1	35.7	34.6	32.5 <sup>8</sup>
<b>Ayirboshlash kurslari</b>					
So'm : AQSH dollari (o'rtacha)		10,837.66	11,225.46	12,338.77	13,640.00
So'm : AQSH dollari		10,609.98	11,051.22	11,737.16	13,020.00

<sup>1</sup> MB (2024) Pul-kredit siyosati sharhi – 2023 yil IV chorak. Manba: www.cbu.uz

<sup>2</sup> World Bank (2023) Europe and Central Asia Economic Update Fall 2023. Manba: www.worldbank.org

<sup>3</sup> ADB (2023) Asia Development Outlook September 2023. Manba: www.adb.org

<sup>4</sup> EBRD (2024) Uzbekistan Country Strategy 2024-2029. Manba: www.ebrd.org

<sup>5</sup> IMF (2023) IMF Data Mapper Oktabr 2023. Manba: www.imf.org

<sup>6</sup> Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi (2023) Fuqarolar uchun Budget 2024. Manba: www.imv.uz

<sup>7</sup> Lex.uz (2023) O'zbekiston Respublikasi Davlat Byudjeti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2024.

Manba: www.lex.uz

<sup>8</sup> IMF (2023) Regional economic outlook: Middle East and Central Asia October 2023. Manba: www.imf.org

# BIZNES MUHIT VA ISTIQBOLLAR

## O'zbekiston bank tizimi

### Asosiy ko'rsatkichlar<sup>9</sup>

- Tijorat banklarining moliyaviy natijalarining 2023 yil 31-dekabr holatiga ko'ra, bank tizimining jami aktivlari AQSH dollari ekvivalentida 6.5% ga o'sib, \$52.8 mlrd ni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklarining umumiy kapitali 2023 yil yakuniga ko'ra 10.8% ga o'sib, \$7.9 mlrd ni tashkil etdi.
- 2023 yil so'ngiga kelib, O'zbekistonda tijorat banklari soni 35 tani tashkil etdi, shundan 10 tasi davlat ulushi mavjud bo'lgan banklardir. Mamlakat bank tizimida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning o'rni muhimligicha qolmoqda. Xususan, butun bank tizimining jami aktivlarning 67.8% va jami kapitalining 65.2% ni ushbu 10 bankka tegishlidir.
- 2023 yil 31-dekabr holatiga ko'ra, tijorat banklarining jami aktivlari asosan kreditlar (70.2%), naqd pul va boshqa banklardagi depozitlar (16.3%), qimmatli qog'ozlar (5.0%) va boshqa aktivlardan (8.5%) tashkil topgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining jami majburiyatlari va kapitali, mijozlar depozitlari (37.1%), moliya institutlaridan olingan kreditlar (34.4%), boshqa banklardan jalb qilingan depozitlar (7.0%), obligatsiyalar (2.0%), boshqa majburiyatlar (4.6%), va kapitaldan (14.9%) tashkil topgan.

### Asosiy yo'nalishlar 2024-2025

- Hukumat bank tizimida xususiy banklarning ulushini oshirish maqsadida davlat banklarini xususiylashtirish jarayonini davom ettirmoqda. Xususan, 2023 yilning oxiriga kelib O'zsanoatqurilishbank va Asaka bank IFC, EBRD va ADB ishtirokida xususiylashtirilishi kerak edi. Ammo, hukumat o'z rejasini o'zgartirgan holda 2024 yilning oxirigacha O'zsanoatqurilishbankdagi davlat ulushini 50% ga kamaytirishga va Asaka Bankning xususiylashtirish jarayonini esa 2025 yilning oxirigacha yakunlashga qaror qildi.
- Ammo, ushbu banklarning avvaldan korporativ sektor va davlat korxonalariga kredit berishga urg'u berib kelganligi va shu kunlarda o'z e'tiborlarini diversifikatsiyalangan model (kichik va o'rta biznesga e'tibor qaratish hamda chakana savdoni rivojlantirish) qurishga qaratganligi sababli, mutaxassislarning fikriga ko'ra xususiylashtirish jarayoni kutilganidan ko'proq vaqt talab qilishi aytilmoqda.
- Shuningdek, Biznesni Rivojlantirish Banki (avvalgi QQS) 2024 yil martigacha fond birjasida IPOga joylashtirilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, Xalq bank, Mikrokreditbank, Aloqa bank va O'zbekiston Milliy banki 2025 yilning oxirigacham fond birjasida IPOga joylashtirilishi rejalashtirilgan<sup>10</sup>.

## O'zbekistonning eng yirik 20 ta Banki

2023 yil moliyaviy natijalariga ko'ra

(Birlik: MLN \$, %)

#	Banklar	Aktivlar	Kapital	Sof foyda (Soliq to'langunga qadar)	ROA	ROE
1	O'zmilliybank	10,334	1,447	192	2.4%	17.6%
2	O'zsanoatqurilishbank	6,049	707	96	2.2%	18.3%
3	Agro Bank	5,406	997	64	1.7%	9.3%
4	Asaka Bank	4,702	540	18	0.5%	4.3%
5	Ipoteka Bank	3,861	614	86	2.9%	20.1%
6	Kapital Bank	3,393	343	172	7.7%	80.0%
7	Xalq Bank	2,966	477	21	1.0%	5.9%
8	Biznesni Rivojlantirish Bank	2,193	258	24	1.4%	12.1%
9	Hamkor Bank	1,700	305	126	10.6%	63.2%
10	Mikrokredit Bank	1,545	319	5	0.5%	2.2%
13	Ipak Yo'li Bank	1,367	223	77	8.1%	50.5%
11	Aloqa Bank	1,300	214	62	6.0%	44.0%
12	Turon Bank	1,292	154	6	0.7%	5.1%
14	Orient Finance Bank	1,064	182	66	8.5%	52.6%
17	Invest Finance Bank	776	96	27	5.0%	40.2%
15	Trust Bank	766	182	80	14.3%	65.3%
16	KDB Bank O'zbekiston	717	106	45	8.0%	64.8%
18	Asia Alliance Bank	651	69	32	7.2%	72.3%
19	Tenge Bank	538	103	5	1.5%	6.7%
20	Davr Bank	497	82	39	12.2%	74.6%

<sup>9</sup> MB (2024) O'zbekiston Bank tizimi ko'rsatkichlari. Manba: www.cbu.uz

<sup>10</sup> Spot (2024) Davlat banklarining xususiylashtirish ko'proq vaqt talab etadi - Fitch. Manba: www.spot.uz

# Biznes Reja & Boshqaruv Strategiyasi

## Bank Maqsadi & Asosiy Vazifalar 2024

### BANK MAQSADI

#### MDH Hududida Yetakchi Moliya Instituti

### ASOSIY VAZIFALAR 2024

#### Biznesni takomillashtirish uchun asosiy vazifalar



##### Yangi mahsulotlarni yaratish

- o Xorijiy banklar bilan hamkorlikda sindikatlangan kreditni ishga tushurish
- o Islom moliyasi mahsulotlarni tadbiq etish uchun texnik tadqiqot ishlarini amalga oshirish
- o Hosilaviy moliya vositalarini amaga oshirish uchun tayyorgarlik ko'rish.



##### Karta biznesini takomillashtirish

- o Xizmat sifati, shuningdek karta biznesining xavfsizligi va barqarorligini oshirish maqsadida VISA va mahalliy karta tizimlari uchun texnik infratuzilmani yangilash.



##### Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash

- o Bankning korporativ mijozlari va ularning xodimlariga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilash va tezligini oshirish.

#### Biznesni optimallashtirish uchun asosiy vazifalar



##### Xodimlar bilan ishlashni yaxshilash

- o Ishchilar va boshqarmalarning vazifasi, mas'uliyati hamda ularning ish hajmini tahlil qilish.



##### Iqtisodiyot tarmoqlari tahlilini takomillashtirish

- o Bankning kredit berish faoliyati doimiy ravishda kengayib borayotgan bir sharoitda kredit arizalarini ko'rib chiqish va tasdiqlashni qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish hamda ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish.



##### Kredit limitlarini boshqarish tizimini avtomatlashtirish

- o Ta'sir turlari hamda guruhlashtirishni hisobga olgan holda Unibankda kredit limitlarini boshqarishning kompleks tizimini ishlab chiqish (bir guruh tegishli qarz oluvchilar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqalar).

# Biznes Reja & Boshqaruv Strategiyasi

## Moliyaviy rivojlanish rejasi

Jahon moliya bozoridagi joriy tendentsiyalar hamda O'zbekistondagi moliyaviy muhitni hisobga olgan holda, 2024 moliya yili uchun moliyaviy hisobotlar quyidagicha prognoz qilindi.

### Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy bandlari

Birlik: \$ ming, %

Ko'rsatkichlar	2024		2023		
	Reja (A)	O'sish (A-C)/C	Reja (B)	Fakt (C)	Ijro (C/B)
<strong>MOLIYAVIY HOLAT</strong>					
<strong>Jami Aktivlar</strong>	<strong>749,559</strong>	<strong>4.6%</strong>	<strong>777,671</strong>	<strong>716,848</strong>	<strong>92%</strong>
Naqd pul, banklararo depozitlar va pul bozoriga mablag'larini joylashtirish	459,849	-0.4%	558,890	461,510	83%
Kreditlar	235,000	9.4%	205,000	214,742	105%
Qimmatli qog'ozlar	47,000	50.4%	10,000	31,241	312%
Boshqa aktivlar	7,710	-17.6%	3,781	9,354	247%
<strong>Jami Majburiyatlar</strong>	<strong>627,450</strong>	<strong>2.8%</strong>	<strong>691,431</strong>	<strong>610,582</strong>	<strong>88%</strong>
Mijozlar depozitlari	502,000	-0.7%	638,700	505,718	79%
Banklararo qarzlar	120,000	20.0%	50,000	100,000	200%
Boshqa majburiyatlar	5,450	12.1%	2,731	4,863	178%
<strong>Jami Kapital</strong>	<strong>122,109</strong>	<strong>14.9%</strong>	<strong>86,240</strong>	<strong>106,266</strong>	<strong>123%</strong>
<strong>DAROMAD HISOBOTI</strong>					
Sof foizli daromadlar	37,662	-14.1%	28,679	43,865	153%
Sof foizsiz daromadlar	12,310	-2.8%	9,080	12,664	139%
Ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxira (Yaratilishi - / Qaytarilishi +)	(715)		(2,652)	105	
<strong>Sof Operatsion Daromad</strong>	<strong>49,257</strong>	<strong>-13.0%</strong>	<strong>35,107</strong>	<strong>56,634</strong>	<strong>161%</strong>
Operatsion xarajatlar	(14,411)	25.8%	(12,638)	(11,460)	91%
Standart aktivlar bo'yicha zaxira	(823)		(915)	172	
<strong>Daromad solig'idan oldingi sof foyda</strong>	<strong>34,023</strong>	<strong>-25.0%</strong>	<strong>21,553</strong>	<strong>45,346</strong>	<strong>210%</strong>
Sof foyda	27,218	-25.8%	17,100	36,668	214%
Ayirboshlash kursi: UZS/USD	13,640.00	10.5%	12,572.52	12,338.77	
O'rtacha ayirboshlash kursi: UZS/USD	13,020.00	10.9%	11,898.99	11,737.16	

**Izoh:** Biznes reja rasmiy buxgalteriya standartlari asosida tayyorlandi. O'zbek so'mi O'zbekiston Respublikasining amalda qo'llanilayotgan pul birligi bo'lganligi sababli, yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar avval so'mda hisoblanib so'ngra prognoz qilingan valyuta kursi (2024 yil 31 dekabr holatiga \$1 = 13,640.00 so'm va o'rtacha ayirboshlash kursi \$1=13,020.00 so'm) ni qo'llagan holda AQSH dollarida hisoblab chiqildi.


## Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy bandlariga izohlar

Biznes rejaga muvofiq, jami aktivlar 2024 yil so'ngiga kelib \$749.6 mln ni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarni prognoz qilishda global geosiyosiy vaziyatdagi noaniqliklar sababli konservativ yondashuv qo'llanilgan. Boshqa tomondan, jami majburiyatlar 2024 yil so'ngiga kelib \$627.5 mln ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Jami aktivlar va majburiyatlar tarkibida quyidagi asosiy o'zgarishlar prognoz qilinmoqda:

- Operatsion aktivlar (kreditlar va qimmatli qog'ozlari) ning \$36 mln ga ortishi;
- Qo'shimcha \$20 mln miqdorida banklararo qarzlarni jalb etish;

Jami kapital, rejalashtirilayotgan \$27.2 million (354.4 milliard so'm ekvivalenti) miqdordagi sof daromadga qaramay, 2024 yilda so'mning AQSh dollariga nisbatan kutilayotgan devalvatsiyasi hisobiga \$15.8 million ga o'sishi prognoz qilinmoqda.




## Operatsion Aktivlar

Bankning operatsion aktivlari kreditlar va moliyaviy institutlar hamda davlat organlari tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar (bond, yevroobond, g'aznachilik vekseli va boshqalar) dan iborat.

2024 yilda Bank operatsion aktivlarni \$36 mln ga (yoki 14.6% ga) quyidagicha oshirishni rejalashtirgan.

- Yuridik va jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarni \$16.4 mln (10.2%) ga oshirish;
- Mahalliy banklarga ajratiladigan kreditlar ("on-lending" va savdoni moliyalashtirish) miqdorini \$3.9 mln (7.2%) ga oshirish;
- Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hajmini \$15.7 (50.4%) mln ga ko'paytirish;

## Operatsion aktivlar (2023 yil fakt vs. 2024 yil reja)



## Yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni oshishi (▲ U\$ 16.3 mln)

2024 yilda Bank o'z sohasida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan korporativ mijozlarni jalb qilishga qaratilgan faoliyatini jadallashtiradi. Bank odatdagidek loyihalarni moliyalashtirishdan avval mijozlarning moliyaviy faoliyati hamda biznes rejasini ko'rib chiqishda konservativ yondashuvni qo'llashda davom etadi.

Bank asosan tog'-kon sanoati, neft va gaz, ichimliklar va oziq-ovqat, kabel mahsulotlari, qurilish materiallari, farmatsevtika, tekstil, plastmassa buyumlari hamda qog'oz va gigiena mahsulotlarini

ishlab chiqaruvchi hamda moliyaviy jihatdan ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan eng yirik kompaniyalarga kreditlar ajratishda davom etadi. Bundan tashqari, Bank o'z oldiga xorijiy va mahalliy banklar bilan hamkorlikda sindikatlangan kreditlash amaliyotini jadallashtirishni rejalashtirgan.

2024 yil oxiriga kelib, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar portfeli 2023 yil so'ngidagi \$160.6 mln ga nisbatan \$176.9 mln ni tashkil etishi kutilmoqda.

## "On-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarini o'sishi (▲ U\$ 3.9 mln)

2020-2021 yillarda bank O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini va savdoni moliyalashtirish faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ilk bor mahalliy banklarga "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarini joriy qildi. So'ngi uch yil davomida, bir qancha mahalliy banklarga "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlari ajratildi.

2023 yil so'ngida "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarining qiymati jami U\$ 54.2 mln ga yetdi. 2024 yilda Bank "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarini \$58.1 mln ga yetkazishni rejalashtirgan.

## Qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar (▲ U\$ 15.8 mln)


2023 yilda Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi hamda AQSH G'aznachiligi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib oldi. 2023 yil 31-dekabr holatiga, qimmatli qog'ozlarining umumiy summasi \$31.2 mln ga teng bo'ldi.

2024 yilda Bank Operatsion aktivlarni diversifikatsiya qilish maqsadida qimmatli qog'ozlariga investitsiya faoliyatini jadallashtirish niyatida. 2024 yil oxirida Bankning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalari \$47 mln ni tashkil etishi kutilmoqda.

## Daromadlilik

### Daromatlilikning asosiy ko'rsatkichlari (2023 fakt vs. 2024 reja)

(Birlik: MLN \$, %)



### Sof Foizli Daromadlar

2024 yilda foizli daromadlar va xarajatlaridagi quyidagi asosiy o'zgarishlar sababli Bankning sof foizli daromatlari 2023 yilga nisbatan U\$ 6,203 mingga kamayishi kutilmoqda:

- Operatsion aktivlarning ortishi munosabati bilan (▲ U\$ 8,042 ming) kreditlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlarning o'sishi;

- Asosan jahon pul bozorlarida foiz stavkalari va mijozlarning o'rtacha depozitlarining kamayishi hisobiga bo'sh pul mablag'larini joylashtirishdan olinadigan foizli daromadlarning kamayishi (▼ U\$ 8,201 ming);
- Mijozlarning depozitlari va qo'shimcha banklararo qarzlarni jalb qilish bo'yicha foizli xarajatlarning o'sishi (▲ \$6,044 ming).

### Sof Foizsiz Daromadlar

Tijorat banklari o'rtasidagi yuqori raqobat hamda pandemiya bilan bog'liq vaziyat sababli Bank 2017 - 2020 yillarda sof foizsiz daromadlarning pasayish tendentsiyasini boshdan kechirdi. Xususan, 2020 yilda bankning sof foizsiz daromadi \$4,462 ming (tarixiy minimum) ni tashkil etdi.

Biroq, Bankning komissiya biznesi bilan bog'liq vaziyat 2021 yildan boshlab ijobiy tomonga o'zgara boshladi va Bankning foizsiz daromatlari 2021-2023

yillarda o'sib, 2021 yilda \$6,728 ming ni, 2022 yilda \$9,879 ming ni va 2023 yilda U\$ 12,664 ming ni tashkil etdi.

Beqaror geosiyosiy vaziyatni hisobga olib, Bank konservativ tarzda 2024 yilda Sof foizsiz daromadlarini U\$ 12,310 minga yetkazmoqchi va bu 2023 yildagiga nisbatan (▼ U\$ 354 ming) ga kamroq deganidir.

### Zaxira, operatsion xarajatlar va soliqdan oldingi sof daromad

Bank kredit yo'qotishlari (2024 yilda \$ 715 ming vs. 2023 yildagi \$ -194 ming) va standart aktivlar (2024 yilda \$ 823 ming vs. 2023 yildagi \$ -172 ming) bo'yicha zaxiralarni konservativ yondashuv asosida prognoz qilmoqda. Bundan tashqari, 2024 yilda bankning operatsion xarajatlari \$2,951 ming ga o'sishi va \$14,411 ming ni tashkil etishi kutilmoqda.

Sof foizli va foizsiz daromadlar, zaxiralar va operatsion xarajatlarda yuqorida keltirilganidek konservativ yondashuv asosida reja qilinganligi sababli, 2024 yilda Bankning soliqdan oldingi sof daromadi 2023 yilga nisbatan \$ 11,323 ming ga kam bo'lishi prognoz qilinmoqda.

# Biznes Reja & Boshqaruv Strategiyasi

## Yillik Budjet Rejasi & Tafsilotlar

### Operatsion xarajatlar

2024 yida bankning operatsion xarajatlari 2023 yildagi ko'rsatkichlarga qaraganda AQSH dollari ekvivalentida 25.8% ga o'sishi prognozlashtirilmoqda. Kutilgan o'sish qiymati \$2,951 mingni tashkil etadi.

(Birlik: So'm mln, \$ Ming)

Ko'rsatkichlar	Reja 2024		Fakt 2023		Tafovut (\$)		Izohlar
	So'm	\$	So'm	\$	Miqdor	%	
Ish haqi va xodimlarga xarajatlar	133,495	10,253	97,264	8,287	1,966 <sup>1</sup>	23.7%	Mahalliy va chet el xodimlar uchun ish haqi va boshqa xarajatlar
Ijara va xizmat ko'rsatish xarajatlar	13,334	1,024	8,906	759	265 <sup>2</sup>	35.0%	Ijara to'lovi, xavfsizlik, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunal to'lovlar
Safar va transport xarajatlari	1,263	97	804	68	29	41.6%	Xizmat safari, avto yoqilg'i xarajatlari
Ma'muriy xarajatlar	5,598	430	4,359	371	59	15.8%	Aloqa, kanstovarlar, davriy nashrlar uchun xarajatlar
Vakillik xarajatlari va a'zolik badallari	9,265	712	8,057	686	25	3.7%	Depozitlarni kafolatlash fondiga a'zolik to'lovi, vakillik, xayriya va tadbirlarga xarajatlar
Amortizatsiya	16,800	1,290	9,840	838	452 <sup>3</sup>	53.9%	Moddiy va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya xarajatlari
Boshqa xarajatlar	5,275	405	4,587	391	14	3.7%	Sug'urta, audit, yuridik maslahatlar va boshqa konsultatsiyalar, mustaqil Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lovlar, soliqlar (daromad solig'i bundan mustasno)
Kutilmagan xarajatlar uchun zaxira	2,604	200	690	59	141	240.4%	Kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira
<b>Jami</b>	<b>187,635</b>	<b>14,411</b>	<b>134,507</b>	<b>11,460</b>	<b>2,951</b>	<b>25.8%</b>	
<i>O'rt. ayirb. Kursi</i>	13,020.00		11,737.16				

<sup>1)</sup> Asosan, ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlarning o'sishi

<sup>2)</sup> Asosan, yangi va hozirda mavjud AT loyihalariga texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan, AT ga doir konsalting xizmatlari) xarajatlarning ortishi

<sup>3)</sup> Asosan, yangi moddiy va nomoddiy aktivlarni, xususan, AT-uskunalar va litsenziyalarni sotib olish hisobiga o'sish

## Kapital Xarajatlar

(Birlik: MING \$)

#	Asosiy xarajatlar	Reja 2024
	<b>AT sohasini takomillashtirish</b>	<b>7,515</b>
1	- AT infratuzilmasini takomillashtirish	4,765
	- AT rivojlantirish (shu jumladan, Raqamli Bank yechimlari)	2,750
2	<b>Bank kartalari biznesi</b>	<b>1,350</b>
	<b>Ma'muriy xarajatlar (transport vositalari, mebellar va jihozlar)</b>	<b>350</b>
3	- Bosh ofis	300
	- Oybek filiali	50
	<b>JAMI:</b>	<b>9,215</b>

## AT sohasini takomillashtirish

2024 yilda Bank AT infratuzilmasini yaxshilash hamda Biznes amaliyotlarini yanada raqamlashtirish uchun jami \$7,515 ming sarflamoqchi. Xususan, AT uskunalar xarid qilish uchun \$ 3,905 ming, litsenziyalar va dasturiy ta'minotlar xarid qilish uchun \$ 860 ming hamda AT ilovalar (jumladan, raqamli bank yechimlari) bo'lgan Internet-Banking tizimi, Boshqaruv axborot tizimi (MIS BI), Intranet tizimi, Mobil banking tizimi, Unibanks, Komplayensni boshqarish tizimi, Tavakkalchilikni boshqarish tizimi va boshqalarni yangilash va rivojlantirish uchun \$ 2,750 ming ajratilgan.

## Bank kartalari biznesi

2024 yilda AJ "KDB Bank O'zbekiston" bank kartalari biznesini yanada rivojlantirish uchun \$ 1,350 ming, xususan, bankomatlar va savdo terminallarni xarid qilish uchun \$ 290 ming, VISA karta tizimini texnik infratuzilmasi (uskunalar, dasturiy ta'minot va litsenziyalar, yangi xizmatlar va xususiyatlar) ni yaxshilash uchun \$ 1,000 ming va boshqa maqsadlar uchun \$ 60 ming sarflashni rejalashtirgan.

## Ma'muriy xarajatlar (transport vositalari, mebellar va jihozlar)

2024 yilda bank yangi transport vositalari, mebel va jihozlar uchun \$ 350 ming, shu jumladan, bosh ofis uchun \$ 300 ming, Oybek filiali uchun \$ 50 ming miqdoridagi mablag' ajratishni rejalashtirgan.